



## MUSTAQILLIK YILLARIDA FARG'ONA VILOYATIDA SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMIDA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLARNI IJTIMOIY HAYOTGA TASIRI.

**K. Sulaymanov**

*Farg'ona davlat universiteti*

*Magistratura bo'limi boshlig'i*

**Ruziyeva Odinaxon Sobirovna**

*Farg'ona davlat universiteti*

*2-kurs magistranti*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimida amalga oshirilib kelingan islohotlar. Shuningdek Farg'ona viloyati sog'liqni saqlash tizimida amalga oshirilgan ishlar, ularning aholi salomatligini tiklashdagi samarali natijalari haqidagi ma'lumotlar taxlil etilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Sog'liqni saqlash, tez tibbiy yordam, qishloq virachlik punktlari, reanimatsiya, rentgen, kol'poskopiya, gastroenterolog, endokrinolog, nevropatolog, fizioterapiya muolajalari, massaj, ul'tratovush, darsanval, paraffin, gidromassaj.*

Mustaqil taraqqiyotimiz davrida mamlakatimizda inson hayotini yaxshilash, aholi turmush sharoitlarini yaratish maqsadida ulkan ishlar amalga oshirildi. Mamlakatda aholini ijtimoiy himoya qilish, uning sog'ligini kafolatlash yo'nalishida jahon va milliy tajribaga tayanib yagona tizim yaratila boshlandi. Bugungi kunda zamon talabi, aholini ijtimoiy himoyalash va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish uchun yangicha tamoyillarni ishlab chiqish va amalga oshirishni talab etmoqda.

Tibbiyot tizimidagi islohotlar Yangi O'zbekiston siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki bugungi kunda har qaysi xalq, davlat va jamiyatning rivojlanish omili inson, uning sog'lig'i va turmush darajasiga berayotgan e'tibori, shu yo'ldagi say-harakati bilan o'lchanishi barchamizga ayon.

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 40-moddasida "Har bir inson malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega"<sup>174</sup> deb belgilandi.

Dastlabki davrlardan boshlab mamlakatmizda ushbu sohani rivojlantirish va mustahkamlash maqsadida Qonun hujjalari qabul qilindi<sup>175</sup>. Shuningdek aholi salomatligini tiklash hamda mustahkamlash yo'lida mustaqillikning davstlabki davrlaridayoq mamlakatda sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish zarurati paydo bo'ldi va ushbu sohada O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Farmoni qabul qilindi.<sup>176</sup>

<sup>174</sup>O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiya Toshkent. "O'zbekiston. 2021 y.

<sup>175</sup>1996 yil 29 avgustda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning sog'ligini saqlash tug'risida»gi Qonun

<sup>176</sup>1998 yil 10 noyabrda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish Davlat dasturi to'g'risida»gi 2107-sod Prezident Farmoni



O'zbekistonning ushbu jarayonlardagi yangicha tamoyillarni ishlab chiqish hamda mamlakatimizning jahon talablariga javob bera oladigan barcha sohalarni rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish buyicha Xarakatlar strategiyasi tugrisida» PF-4947-son Farmoni qabul qilindi. Harakatlar strategiyasida Aholini ijtimoiy himoya qilish va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilandi<sup>177</sup>. Shuningdek 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlarni aholiga yanada yaqinlashtirish va qulayligini oshirish maqsadida respublika hududlarida tibbiyot klasterlarini tashkil etish maqsadida Namangan, Farg'ona, Sirdaryo, Qashqadaryo, Navoiy, Toshkent viloyatlari va Toshkent shahrida tibbiyot klasterlarini tashkil etish maqsadlari amalga oshirila boshlandi<sup>178</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2107-sonli “O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini isloh qilishning davlat dasturi to'g'risida”gi farmoniga muvofiq mamlakatda islohotlarni amalga oshirishning maqsadlari hamda bir qator vazifalarini belgilab berish bilan birga, tizimning asosiy tamoyillarini ko'rsatib berdi.

1. Fuqarolarning malakali tibbiy xizmatdan foydalanish va ijtimoiy himoyaga doir konstitusiyaviy huquqlariga rioya etish;
2. Ko'rsatilgan tibbiy xizmatlarning turlaridan aholining baravar bahramand bo'lishini ta'minlash;
3. Aholi salomatligi va uning yashash muhiti holatining davlat tomonidan nazorat qilinishini ta'minlash;
4. Bozor prinsiplari va mexanizmlarini joriy etish asosida sog'liqni saqlash tizimini chuqur isloh qilish;
5. Onalik va bolalikni muhofaza qilishning samarali tizimini yaratish;
6. Profilaktik sog'liqni saqlashni ustivor rivojlantirish, sog'lom turmush tarzi, to'g'ri ovqatlanish, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishni keng ommalashtirish;
7. Shoshilinch bepul tibbiy xizmat ko'rsatishni maxsus va umumiy davolash-tibbiyot muassasalarining pulli xizmat ko'rsatishga bosqichma-bosqich o'tishi bilan uyg'un olib borish, tibbiy sug'urta tizimini rivojlantirish;
8. Xususiy tibbiy davolash amaliyotini rivojlantirish va rag'batlantirish;
9. Aholi salomatligini muhofaza qilishga yo'naltirilgan byudjet xarajatlari samaradorligini oshirish<sup>179</sup>.

<sup>177</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi tug'risida» PF-4947-son farmoni.

<sup>178</sup>2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan “Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida” gi PF-60-son farmoni.

<sup>179</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2107-sonli “O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini isloh qilishning davlat dasturi to'g'risida”gi farmoni. 1998 yil 10 noyabr.



Bu chiqarilgan qonun va qarorlar Farg'ona viloyatida sekin asta o'z samarasi va natichasini ko'rsata boshladi.

Misol uchun: 1991-yilda viloyatimizda davolash-profilaktika muassasalarida 21 nafar tibbiyot fanlari nomzodlari va 35 nafar "Respublikada hizmat ko'rsatgan vrach" fahriy unvoniga ega bo'lgan shifokorlar samarali mehnat qilmoqda.

Viloyatimizda mehnat qilayotgan 5 ming 460 nafar shifokorlarning 2 ming 710 nafari xotin-qizlar ekanligi quvonchlidir.

O'rta tibbiyot hodimlari esa 21 ming 514 kishini tashkil etib, xalq salomatligi uchun qayg'urmoqdalar.

Viloyatimizning shifokor-beteranlari soni esa 1 ming 684 nafardan oshib ketdi<sup>7</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 23-iyundagi "Tibbiy mehnat ekspert komissiyalari to'g'risida"gi 317-qarori asosida Farg'ona viloyatida maxsus ko'z kasalliklari TMEK (tibbiy mehnat ekspertiza komissiyasi) tashlik etildi. Anashu davrdan boshlab bu maskan viloyat aholisiga hizmat ko'rsatib kelmoqda<sup>8</sup>.

Respublikamizda "Fuqqrolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida"gi qonun kuchga kirgan 1996-yildan boshlab, sog'liqni saqlash boshqarmasi tasarrufidagi barcha tibbiy muassasalari hayotida qator yangiliklat yuz bera boshladi. Mualaja jarayonlari dunyo andozalari darajasiga yetkazish uchun intilish oshib boryapdi. Viloyatimizda 4 ming o'ringa ega bo'lgan 10 dan ortiq shifoxona, 5 ming bemor qatnoviga mo'ljallangan 100 ta ambulatoriya yangidan faoliyat ko'rsata boshladi. Horijiy mamlakatlardan keltirilgan 50 dan ortiq UZI, 10 dan ortiq roentgen va bitta "LITOTRIPTOP" tibbiy aparatlari klinik shifoxonalar va qishloq hakimlik punktlariga o'rnatildi. 1998-yilning o'zida 900 nafar hakim, 3 ming nafar o'rta tibbiy hodimning malakasi oshirildi<sup>9</sup>.

- 
7. Fakt va raqamlar. Farg'ona shifokori. №8. 13.06. 1991-yil.
  8. Prezidentimizga madadkormiz. Farg'ona shifokori. №8. 28.04.1999-yil.
  9. Xizmat darajasi yaxshilanadi. Farg'ona shifokori. №11. 14.06.1999-yil.

Mutaqilligimizning 9 yillik bayrami arafasida Beshariq tumanidagi Andarxon qishlog'ida yangi davolash punkiti qurilib ishga tushirildi. Tumandagi yana bitta qishloq fildscherlik-akusherlik punkti qishloq davolash punkitiga aylantirildi<sup>10</sup>. Bu esa qishloq hayoti farovonligi sari qo'yilgan qadamlardan biri bo'ldi.

Bu ishlarning davomi sifatida Quvasoy shahrida ham xalq salomatligini saqlash, qishloq ahliga tibbiy xizmat ko'rsatish saviyasini yuqori darajaga ko'tarish masalalariga alohida e'trbor berila boshlandi.

Pakana qishlog'idagi eski, ko'rimsiz ambulatoriya o'rnida qad rostlagan zamonaviy qishloq hakimlik punkti foydalanishga topshirildi. Anashu savobli va hayrli ishga 70 million so'm mablag' sarflandi. Binoni qayta ta'mirlash va qo'shimcha qurilish ishlarini Odiljon Olliyorov boshliq "Kvarst" hissadorlik jamoasi amalga oshirdi. Bu yerga jahon banki tomonidan ajratilgan mablag' hisobiga 60 ming AQSH dollarilik tibbiy asbob-uskunalar o'rnatildi<sup>11</sup>.



Mamlakatimizda “Keksalarni e’zozlash yili” Davlat dasuri doirasida o’tkazilayotgan tadbirlarni moliyalashtirish barcha manbalar hisobidan qariyb 593 milliard so’m yo’naltirildi. Bu yoshi ulug’, nuroni kishilarni har tomonlama qo’llab-quvvatlash, ularga tibbiy va ijtimoiy xizmat ko’rsatish darajasi hamda sifatini oshirish bo'yicha belgilab olingan ustuvor vazifalarning izchil ijrosini ta'minlash imkonini berayatgani bilan g'oyat ahamiyatlidir<sup>12</sup>.

1997-yilda qabul qilingan “Dori vositalari va farmasevtika faoliyati to'g'risida”gi qonunga asasan shu yilda 30 ga yaqin dori vositalari ishlab chiqarilgan edi. Bu ko’rsatkich 2015-yilga kelib mamlakatimizdagi korxonalar soni 149 taga yetib, ular tomonidan 1482 nomdag'i dori vositalari ishlab vhiqarila boshlandi<sup>13</sup>.

- 
10. Yangi shifo maskani. Farg'ona shifokori. №16. 26.08. 2000-yil.
  11. Yangi salomatlik markazi. Farg'ona shifokori №8. 25.04.2002-yil.
  12. Bir raqam sharhi. Xalq so'zi №84. 29.04.2015-yil.
  13. Sog'liqni saqlash islohotlari va qonunchilik. Xalq so'zi.№109. 2.06.2015-yil.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 28-oktabrdagi 1213-soni "Inavatsion davolash to'g'risida"gi qarori asosida Farg'ona shahri markazida viloyat OITS (SPID) ga qarshi kurash markazining yangi binosi qurilishi va qayta ta'mirlanish ishlari nihoyasiga yetdi.

Markaz qurilish smeta-hujjatlarini "Al- me'mor-A" ochiq aksiopnerlik jamiyatni tayyorlab, ekspertizadan o'tkazdi. Yangi obyekt tenderida boshlang'ich baho 919,3 mln so'm etib belgilandi. Bu mablag'ning 917,6 mln so'mini "Grant Ayk Servis" ochiq aksionerlik jamiyatni olib, qurilish ishlarini jadallik bilan olib bordi.

Hozirgi kunda tibbiyot masaki Farg'ona shahridagi eng ko'rksam tibbiyot maskanlaridan biri bo'ldi<sup>14</sup>.

2020-yilda Quva tumanidagi Begat qishlog'ida xususiy davolash maskani ish boshladi. Aholiga zamonaviy tibbiy xizmat ko’rsatishga mo'ljallangan Asil Marjon Med Servis MCHJxususiy klinikasining tadbirkor-shifokor Asilbek Mamirjonov barpo etdi.

Prezidentimizning "Xususiy tibbiyot tashkilotlarini yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha shart-sharoitlarini yaxshilash to'g'risida"gi qarori mana shunday zamonaviy xususiy klinikalar soni ortishiga xizmat qilmoqda.

Bir qavatli, 20 qatnovga mo'ljallangan klinikada umumiy amaliyot shifokori ko'ruvi, fizioterapiya muolajalari, massaj, ul'tratovush, darsanval, paraffin, gidromassaj xizmati hamda sifatli tashxis qo'yish, davolash uchun barcha zamonaviy moddiy-texnik imkoniyatlar yetarli<sup>15</sup>.

2020-yil 6-noyabr kuni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida sag'liqni saqlash tizimining birlamchi bo'g'inini takomillashtirish hamda aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakillantirish chora- tadbirlari bo'yicha videoselektiv yig'ilishida Oltariq tumani tibbiyotda eng namunali tuman sifatida tashkil etilishi ma'lum qilindi.



14. Yangi tibbiyot maskanlari. Farg'ona shifokori. №17. 1-15.09. 2010-yil.
15. Quvada davolash maskani ish boshladi. Farg'ona shifokori. №11. 29.08.2020-yil.

O'rGANISH jarayonida tuman tibbiyot birlashmasiga qarashli ko'p tarmoqli poliklinika, ko'p tarmoqli bolalar poliklinikasi, 39-sonli G'ayrat qishloq oilavviy poliklinikasi, 43-sonli Fayzabod qishloq oilaviy poliklinikasi, Oq oltin qishloq virachlik punkti binolari rekonstruksiya qilish rejaga kiritildi.

Markaziy shifoxonaning tez tibbiy yordam bo'limi, 37-sonli Oltiariq qishloq oilaviy poliklinikasi, Povulg'on qishloq vrachlik punkti, Jo'rak qishloq vrachlik punkti, Qiziltepa qishloq vrachlik punkti, yangiarab shifokot xizmat uyi, 38-sonli Yangiqo'rg'on qishloq oilaviy poliklinikasi, 39-sonli G'ayrat qishloq oilaviy poliklinikasining Jarqo'rg'on filiali, Eshonmahalla shifokor xizmat uyi binolari esa mukammal ta'mirlanadigan bo'ldi<sup>16</sup>.

Xulosa qilib aytish mumkinki, O'zbekiston mustaqillikka erishgan yillardan boshlab, mamlakat aholisini sog'lig'ini saqlash maqsadida soha tizimi tubdan isloh etila boshlandi. Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish va rivojlantirish yo'lida ko'plam qaror hamda farmonlar qabul qilindi. Qabul qilingan ushbu qaror va farmonlar mamlakat aholisini salomatligini ta'minlash jarayonida katta ahamiyat kasb etdi. Farg'ona viloyati sog'liqni saqlash tizimida 1991-2020-yillar davomida amalga oshirilgan samarali ishlar mustaqillik yillarida ushbu sohada qabul qilingan qaror va farmonlar natijasidir. Viloyatda bugungi kunda tibbiyot tizimi hamda aholiga malakali tibbiy yordam ko'rsatish ishlari jadal sur'atlar bilan rivojlandi. Mustaqillikdan so'ng sog'liqni saqlash sohasidagi islohotlar Farg'ona viloyatida o'z samarasini berdi. Viloyatning chekka hududlarida tashkil etilgan qishloq virachlik punkitlari va ularni zamonaviy tibbiyot jihozlari bilan taminlanishi hamda aholiga sifatlari va samarali hizmat korsata boshladi. Farg'ona viloyatida Xitoy, Kareya davlatlari bilan ham tabbiyot sohasida hamkorlik qilish keng yo'lga qo'yildi. Ushbu jarayon viloyat sog'liqni saqlash tizimini yanada rivojlantirishga keng yo'l va imkoniyatlar yaratilishiga olib keldi.

"Xalq salomatligi hamma narsadan ustun va qadrli"

Sh.M. Miromonovich.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiya Toshkent. "O'zbekiston. 2021 y.
2. 1996 yil 29 avgustdaqabul qilingan «O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning sog'ligini saqlash tug'risida»gi Qonun
3. 1998 yil 10 noyabrdaqabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish Davlat dasturi to'g'risida»gi 2107-sen Prezident Farmoni



4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi tug'risida» PF-4947-son farmoni.

5. 2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi PF-60-son farmoni.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2107-sonli "O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini isloh qilishning davlat dasturi to'g'risida"gi farmoni. 1998 yil 10 noyabr.

7. Fakt va raqamlar. Farg'ona shifokori. №8. 13.06. 1991-yil.

8. Prezidentimizga madadkormiz. Farg'ona shifokori.№8. 28.04.1999-yil.

9. Xizmat darajasi yaxshilanadi. Farg'ona shifokori. №11. 14.06.1999-yil.

10. Yangi shifo maskani. Farg'ona shifokori. №16. 26.08. 2000-yil.

11. Yangi salomatlik markazi. Farg'ona shifokori №8. 25.04.2002-yil.

12. Bir raqam sharhi. Xalq so'zi №84. 29.04.2015-yil.

13. Sog'liqni saqlash islohotlari va qonunchilik. Xalq so'zi.№109. 2.06.2015-yil.

14. 14. Yangi tibbiyot maskanlari. Farg'ona shifokori. №17. 1-15.09. 2010-yil.

15. 15. Quvada davolash maskani ish boshladi. Farg'ona shifokori.№11. 29.08.2020-yil.